O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI TO‘RAQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

To‘raqo‘rg‘on sh. To‘raqo‘rg‘on ko‘chasi 16.

2023 - yil 3 - may 155-6-85-Q/23 To‘raqo‘rg‘on tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida” 2023-yil 10-apreldagi PQ–118-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2023-yil 29-apreldagi 155-6-0-Q/23-sonli qarorlari ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida” 2023-yil 10-apreldagi PQ–118-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2023-yil 29-apreldagi 155-6-0-Q/23-sonli qarorlarini tumanda ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida” 2023-yil 10-apreldagi PQ–118-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2023-yil 29-apreldagi 155-6-0-Q/23-sonli qarorlari rahbarlik va amalda ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Andijon viloyatining Bo‘ston tumanidagi 69 ta ijtimoiy soha obyektini issiqlik energiyasi bilan ta’minlash davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotganligi;

Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va boshqarish tizimini joriy etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 1-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va tumanlardagi davlat ijtimoiy soha obyektlari bo‘yicha 2023-yilda davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimlarni imzolash rejasi 2-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va tumanlarda davlat ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini 2023-yilda davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish ishlarini tashkillashtirish bo‘yicha respublika ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda — Respublika ishchi guruhi) tarkibi
3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

quyidagilar Respublika ishchi guruhining asosiy vazifalari etib belgilanganligi:

davlat ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlari uchun talab etiladigan ko‘mir va boshqa yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta’minlashga ko‘maklashish;

har chorakda tuman hokimligi va jalb qilingan xususiy sheriklar tomonidan bajarilgan ishlar natijadorligini o‘rganish va muntazam monitoring qilib borish;

davlat ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish;

tuman hokimligining loyihalar ijrosi yuzasidan axborotlarini qabul qilish va natijasi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga tahliliy materiallarni kiritib borish;

mazkur qarorda ko‘rsatilgan topshiriqlarning belgilangan muddatlarda bajarilishini nazorat qilib borish;

belgilab qo‘yilishicha, Loyihalarni amalga oshirishda quyidagi vazifa va majburiyatlar bajarilishi ta’minlanishi:

a) davlat sheriklari tomonidan:

davlat ijtimoiy soha ob’yektlarining isitish tizimlarini xatlovdan o‘tkazish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va davlat ekspertizasidan o‘tkazishni ta’minlash;

loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda ko‘mir yoqilg‘isida ishlaydigan energiya tejamkor qozonlarni o‘rnatish va obyektlardagi ichki issiqlik tarmoqlarini modernizatsiya qilishni nazarda tutish;

Loyihalar bo‘yicha konsepsiyalarni tasdiqlash;

Loyihalarni amalga oshirish uchun tenderlarni tashkil qilish hamda xususiy sheriklarni shaffof va ochiq shartlarda tanlash;

jalb qilingan xususiy sheriklar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va ularga isitish obyektlari va tizimlarini davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda belgilangan muddatda vaqtinchalik bepul foydalanishga berish;

Davlat budjeti hisobidan ajratiladigan mablag‘larning davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda belgilangan muddatlarda va miqdorlarda yo‘naltirib borilishini ta’minlash;

xususiy sheriklar tomonidan bajariladigan ishlar va xizmatlar sifatini doimiy nazorat qilib borish, natijasi bo‘yicha har chorakda Respublika ishchi guruhiga axborot berish;

xususiy sheriklar tomonidan davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimda belgilangan shartlar bajarilmagan taqdirda bitimni bir tomonlama bekor qilish;

b) xususiy sheriklar tomonidan:

sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq ijtimoiy soha obyektlarining ichki qismlarida davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimning amal qilish muddati davomida issiqlik haroratini lozim darajada ta’minlash, bunda, davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimlar doirasida ijtimoiy soha obyektlarida issiqlik quvvati hisobini yuritishning onlayn tizimlarini joriy etish bo‘yicha talab qo‘yilishi mumkin;

isitish uchun me’yor bo‘yicha talab etiladigan ko‘mir va elektr energiyasi xarajatlarini kamida 20 foizga va issiqlik energiyasi yo‘qotishlarini
30 foizga kamaytirish;

ijtimoiy soha obyektlarida O‘zbekiston Respublikasida kamida bir yil sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan va xizmat qilish kafolati kamida
15 yilni tashkil qiladigan qozonlarni o‘rnatish;

o‘rnatiladigan isitish qozonlarining sifatini kafolatlash va muddatidan oldin yaroqsiz holatga kelgan isitish qozonlarini o‘z mablag‘lari hisobidan yangilash, bunday hollarda Davlat byudjetidan qo‘shimcha mablag‘ ajratilmasligi;

ijtimoiy soha obyektlarini isitish bilan bog‘liq barcha masalalarni o‘z zimmasiga olish;

Loyihalarni amalga oshirishda modernizatsiya qilish va ta’mirlash xarajatlari uchun talab etiladigan investitsiya mablag‘lari xususiy sheriklar va Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan ajratilishi;

xususiy sheriklarning ulushi kamida 50 foiz va obyektlarni ekspluatatsiya qilish muddati 10 yilni tashkil etishi;

Loyihalarni boshqarish va ekspluatatsiya qilish davri davomida xususiy sheriklar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar 2023-yilda mahalliy budjet parametrlarida ushbu maqsadlar uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar, shuningdek, mavjud shtat birliklarini qisqartirish hamda energiya resurslarini tejash hisobiga iqtisod qilinadigan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilishi;

davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimlar doirasida ijtimoiy soha obyektlarida issiqlik energiyasi yo‘qotishlarini kamaytirish va obyektning energiya samaradorligini oshirish tadbirlari ko‘zda tutilishi mumkin;

ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlari to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi uchun mas’ul va shaxsiy javobgar hisoblanishi;

Xalq deputatlari tuman kengashlariga xususiy sheriklarning eng maqbul takliflarini tanlab olishda quyidagi talablarga e’tibor qaratish tavsiya etilganligi:

xususiy sheriklar mablag‘larining ulushi kamida 50 foiz va undan yuqori bo‘lishi;

xususiy sheriklar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun xarajatlar miqdori mahalliy budjet parametrlarida ushbu maqsadlar uchun ko‘zda tutilgan mablag‘larga nisbatan kam bo‘lishi;

xususiy sheriklarning soliq to‘lovchi sifatida ishonchli bo‘lishi va oxirgi yilda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi 3 mlrd so‘mdan kam bo‘lmasligi;

belgilanishicha:

Loyihalar har bir ijtimoiy soha obyekti bo‘yicha alohida lotga ajratgan holda amalga oshirilishi;

tumandagi mavjud ijtimoiy soha obyektlarining sonidan, muassasalarning olis hududlarda joylashuvidan hamda tashabbuskor xususiy tadbirkorlik subyektlarining takliflaridan kelib chiqib, Respublika ishchi guruhi bilan kelishuvga ko‘ra ikki va undan ortiq loyihalarni birlashtirgan holda lotlarga ajratishga ruxsat berilishi;

isitish qozonlari ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularga qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxat bo‘yicha xorijdan olib kelinadigan (import qilinadigan), respublikada ishlab chiqarilmaydigan tovarlar 2025-yilning 1-yanvariga qadar bojxona bojidan ozod qilinganligi e’tiborga olinsin.

3. Tuman hokimligi (A.To‘rayev) 2023-2026-yillarda tuman hududlarida faoliyat yuritayotgan davlat ijtimoiy soha obyektlarini ko‘mir yoqilg‘isiga o‘tkazish orqali kuz-qish mavsumida issiqlik energiyasi bilan

uzluksiz ta’minlash, qozonxonalarni modernizatsiya qilish hamda muassasalarning issiqlik tizimini ta’mirlash va belgilangan me’yorlarda ishlashini ta’minlashni davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektor ishtirokida bosqichma-bosqich joriy etish choralarini ko‘rsin. bunda tumandagi davlat ijtimoiy soha obyektining issiqlik ta’minoti tizimlarini xususiy sektor ishtirokida modernizatsiya qilish va boshqarish tizimi joriy qilinsin.

4. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Quydagilar:

Tumanda ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimini joriy etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 1-ilovaga muvofiq;

Tumandagi davlat ijtimoiy soha obyektlari bo‘yicha 2023-yilda davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimlarni imzolash rejasi tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tumanda davlat ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini 2023-yilda davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish ishlarini tashkillashtirish bo‘yicha tuman ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda — tuman ishchi guruhi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Quyidagilar tuman ishchi guruhining asosiy vazifalari etib belgilansin:

davlat ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlari uchun talab etiladigan ko‘mir va boshqa yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta’minlashga ko‘maklashish;

har chorakda jalb qilingan xususiy sheriklar tomonidan bajarilgan ishlar natijadorligini o‘rganish va muntazam monitoring qilib borish;

davlat ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish;

tuman hokimligning loyihalar ijrosi yuzasidan axborotlarini qabul qilish va natijasi bo‘yicha tuman hokimligiga tahliliy materiallarni kiritib borish;

mazkur qarorda ko‘rsatilgan topshiriqlarning belgilangan muddatlarda bajarilishini nazorat qilib borish.

7. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (B.Mirzayev);

belgilangan muddatda tumandagi davlat ijtimoiy soha obyektlari bo‘yicha mavjud issiqlik ta’minoti tizimlarining loyiha-smeta hujjatlarini

ishlab chiqish uchun tanlov asosida loyiha institutlarini jalb qilsin hamda mavjud issiqlik ta’minoti tizimlarini xatlovdan o‘tkazgan holda nuqsonlar to‘g‘risida dalolatnomalarni rasmiylashtirsin;

joriy yil 1-iyunga qadar jalb qilingan loyiha institutlari ko‘magida tumandagi ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik ta’minoti tizimini modernizatsiya qilish loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, davlat ekspertizasidan o‘tkazilishini ta’minlasin. Bunda, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va davlat ekspertizasidan o‘tkazish xarajatlari hududlar mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi;

joriy yil 1-iyulga qadar tumanda davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik ta’minoti tizimini modernizatsiya qilish va boshqarish loyihalarining (keyingi o‘rinlarda — Loyihalar) konsepsiyalarini tasdiqlasin;

joriy yil 1-avgustdan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgan va loyiha konsepsiyalari tasdiqlangan tumandagi ijtimoiy soha ob’yektlarining issiqlik tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish ishlarini boshlasin.

8. Loyihalarni amalga oshirishda:

davlat sherigi etib — tuman hokimligi belgilansin;

xususiy sheriklar — O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq tender o‘tkazish va (yoki) Xalq deputatlari tuman kengashlarining qarorlari asosida eng maqbul takliflarni tanlab olish orqali aniqlansin.

9. Tuman hokimligi davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimlar doirasida xususiy sherikka o‘z majburiyatlarini bajarishga har tomonlama, shu jumladan ko‘mir yoqilg‘isini muddatidan oldin jamlab qo‘yishda amaliy yordam ko‘rsatsin.

10. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Axmedxodjayev);

manfaatdor boshqarma, idoralar va tashkilotlar tomonidan tuman hamda o‘z tasarrufidagi ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik ta’minoti tizimi modernizatsiya qilingandan so‘ng yechib olinadigan va foydalanishga yaroqli bo‘lgan isitish qozonlari ehtiyoji mavjud bo‘lgan budjet tashkilotlariga beg‘araz o‘tkazib berilishini tashkillashtirsin.

11. Loyihalarni amalga oshirish uchun Davlat budjeti hisobidan ajratiladigan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazorat tadbirlari har yili o‘tkazilishini ta’minlasin.

Bunda, davlat sherigi va xususiy sherik Loyihalar uchun ajratiladigan

Davlat budjeti mablag‘larining maqsadli sarflanishi uchun davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimga muvofiq javobgar hisoblanadi.

12. Tuman hokimligining axborot xizmati (Z.Kenjayeva), Savdo-sanoat palatasi tuman hududiy bo‘limi (A.Komilov) tumandagi tashkilot va muassalar bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun-mohiyatini tadbirkorlik subyektlariga yetkazish maqsadida turli uchrashuvlar, tematik davra suhbatlari tashkil etsin hamda ularni ommaviy axborot vositalarida keng yoritsin.

13. Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Axmedxodjayev) tuman hokimligi bilan birgalikda bir oy muddatda davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi namunaviy bitim loyihasini ishlab chiqsin.

14. Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (U.Axmedxodjayev) belgilansin

15. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **A.Mansurov**

To‘raqo‘rg‘on tuman hokimining
2023 yil 3 maydagi
155-6-85-Q/23-son qaroriga
1-ilova

1-ilova

To‘raqo‘rg‘on tumanida davlat ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini 2023 yilda davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish ishlarini tashkillashtirish bo‘yicha tuman ishchi guruhi

T A R K I B I

1. Mansurov Axrorbek Axmadaliyevich — Tuman hokimi, *Ishchi guruh rahbari*

2. Lavozimi bo‘yicha — Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, *Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari*
3. To‘rayev Akmaljon Xusniddinovich — Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, *Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari*
4. Axmedxodjayev Umid Xamidovich — Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i, *Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari*

Ishchi guruh a’zolari:

5. Mirzaev Barkamol Voxidovich — Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
6. Azbekov Shoxrux Murotjonovich — Tuman Davlat soliq inspeksiya boshlig‘i
7. Dadabayev Dilmurod Abdulbosidovich — Tuman G‘aznachilik bo‘limi boshlig‘i

8. To‘xtanazarov Nosirjon — Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
9. Djo‘raev Adxamjon — Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i

10. Aliyeva Nelufar v.v. b — Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi boshlig‘i
11. Imomnazarov Ilxomjon Xasanboevich — Tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i